

Ilm-fan sohasidagi hamkorlik

// 12 March 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ilm-fan-sohasidagi-hamkorlik>



D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filialida rus olimi D.I.Mendeleyev tavalludining 190 yilligiga bag'ishlangan "Rossiya ilm-fan kunlari" dasturi o'z ishini boshladi.



100 dan ortiq olimlar va tadqiqotchilar jumladan, Rossiya OTM O'zbekistondagi filiallari talabalari ilm-fan va texnologiya sohasidagi so'nggi yutuqlarga bag'ishlangan qiziqarli ma'ruzalar va suhbatlarga guvoh bo'lishdi. O'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob olish, ilmiy suhbatlar qilish imkoni yaratildi.



Tadbirda tadqiqotchilar va talaba yoshlar ikki mamlakat aholisining hayot sifatini yaxshilash bo'yicha ilg'or tadqiqot va ishlanmalarga bag'ishlangan ma'ruzalar ham bo'ldi. Yaqin kelajakda amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkin bo'lgan tibbiyot, kimyo va yadro texnologiyalari sohasidagi texnologik muammolar va ilmiy yechimlarni muhokama qilishdi.



Shu bilan birga ishtirokchilarga "FANK. Dunyoni o'zgartiruvchi g'oyalar va texnologiyalar" nomli ilmiy film namoyish etildi. Filmda tibbiyot, termoyadro energetikasi, gumanitar fanlar va ekologiya sohalaridagi tadqiqotlar va ularning ahamiyati o'z aksini topgan. Tadbirning ikkinchi kunida talaba-yoshlar o'zlarining ilmiy izlanishlarini taqdimot qilishadi va "Laboratoriya hamma uchun!" ma'rifiy tadbiri taqdim etiladi. Yoshlar fizika, kimyo va biologiya bo'yicha bilimlari orqali o'z g'oyalarini sinab ko'rishlari mumkin bo'ladi.



PXTV
A.N. MEHREZBEVA
MENDELEEV'S PERIODIC
TABLE OF THE CHEMICAL
ELEMENTS

Uzkimyosanoat

Uzkimyosanoat **uzkimyosanoat.uz** **(+99878) 140-74-26**

